

“SUDXO‘RNING O‘LIMI” QISSADAGI SATIRIK QAHRAMONLARNING TASVIRIY TALQINI VA TAHLILI

I.Fattoyev

*Respublika musiqa va san'at kolleji
“Badiiy bezash” kafedrası o'qituvchisi
El. Mail: aslonovich-94@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning buyuk va takrorlanmas yozuvchisi Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissadagi satirik qahramonlarning tasviriy talqini tahlilga tortilgan. Ayniy ijodining gultoji deya e'tirof etiladigan “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida ilgari surilgan g‘oyada hayotning asosini tashkil etuvchi abadiy kurash haqida so‘z boradi. Saxiylik bilan xasislik shu silsiladagi abadiy ziddiyat sifatida asosiy mavzu qilib olingan.

Kalit so‘zlar: “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi, kino talqin, kinossenariy, kinostudiya, rejissor, loyiha, satirik qahramonlar, plan, kompozitsiya, dekoratsiya.

O‘z asarlarida milliylik ruhi, o‘zbekona hayot xarakter-xususiyatlarni yuksak darajada tasviray olgan yozuvchi Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida ifoda etilgan g‘oya hozirgi zamonaviy hayotda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Yaxshilik va yomonlik, saxiylik va baxillik kabi ziddiyatlar kesishuvida kechgan hayot haqidagi asar hajvga asoslangan. Mazkur asarda adib tomonidan kulgu ostiga olingan qusurli amaldorlarning yovuz qilmishlari, zahmatkash xalqning hayoti shunchalik sodda tilda ifodalanganki, undan ramz va obrazlarni to‘g‘ri anglashga yo‘l ochadi. Bundan ko‘rinadiki, qissaning kino talqini uchun loyiha yaratish, ularni keng ommaga taqdim etish, asardagi g‘oyaviy asos - ezgulikka, yaxshilikka intilishni ko‘rsata olish oldimizga qo‘yilgan muhim vazifadir. Sababi inson ongiga ma‘lum g‘oyani singdirishda kino san‘atining o‘rni va imkoniyatlari beqiyosdir. Kinoning o‘ziga xosligi kinoqahramonlarning ichki dunyosi so‘z bilan, o‘y-xayollari operator orqali yirik, o‘rta va umumiy planlarda, rejissorning topilmasida, kompozitorning qahramon tabiatiga monand kuy-qo‘shiq yarata bilishida, kinorassomning eskizlarida o‘z aksini topadi. To‘g‘ri tanlangan mavzu, g‘oya, rejissorlik yechimi kabi umumlashmalar tomoshabinni film davomida ro‘y berayotgan voqea joyiga pinhona yetaklaydi.

San‘atkor tuyg‘u, holatlarining ifodachisi so‘z. Shunday bo‘ladiki, holat bor, ijodiy iztirob bor, lekin shu holat, iztirobning ifodachisi – monand so‘z yo‘q. Shunday paytda san‘atkor yangi so‘z kashf etadi, so‘zlar olamida “yangi mehmon” ko‘z ochadi. Yangi so‘z tabiiy ehtiyoj, tanish holat ifodachisi sifatida tug‘ilsa, yashab ketadi, tilda o‘z o‘rnini topadi. Odatda, yangi so‘zlar so‘zlashuv, jonli tilda paydo bo‘lib, so‘ng

badiiy adabiyotga kiradi. Lekin, san'atkorlar asarlarida tug'ilib, jonli tilga bog'lanib ketgan so'zlar oz emas.

Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi Igor Lukovskiy va Tohir Sobirov tomondan yozilgan kinossenariy asosida 1966-yilda “Tojikfilm” kinostudiyasida rejissor Tohir Sobirov tomonidan suratga olingan. Film premyerasi 1967-yil 20-martda bo‘lib o‘tadi. Mazkur film Buxoroda 1917-yil fevral oyining boshlarida sodir bo‘lgan voqealarga asoslangan. Kambag‘al Hamrohraqning qarzlari tufayli, sudxo‘r Qori Ishkamba singlisini kanizaklikka oladi va uni boshqa boy odamga sotib yuboradi.

Film Sadriddin Ayniyning shu nomdagi qissasiga moslashtirilgan bo‘lib, jirkanch sudxo‘r va molparas, baxil va johil Qori Ishkambning rangli qiyofasini yaratadi.

Film bosh qahramoni rolini ya’ni, Qori Ishkamba mahoratli aktyor - Zahir Dusmatov tomonidan mahorat bilan ijro etilgan. Filmda shuningdek, Habibullo Abdurazakov-Badriddin, Ato Muxamedjanov-Abdullo, Gurmindz Zavkibekov-sudya, Abdurahim Qudusov-Hamro, E.Asanova-Gulyand, A.Xo‘jayev - Rahimi Qand, N.Shariati – Ro‘zi, shuningdek, S.Bekayev, Abdusalom Rahimov, Zuhra Xasanovalar rol ijro etgan. Mazkur film katta ekranlarga chiqqach, 1968-yil - Toshkentda bo‘lib o‘tgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqaro kinofestivali doirasida rejissor Tohir Sobirovga davlat mukofoti loyiq deb topiladi. Dramatik janrdagi film favqulodda psixologik chuqurlikdagi filmda baxtsiz odamning tasviri ochiladi - Qori Ishkamba, jirkanch, ochko‘z, baxil, badnafsligi va yeb to‘ymasligidan katta semiz qorni unga shu ism berilishiga zamin yaratgan.

“Sudxo‘rning o‘limi” qissasi mikrokompozitsiya, ekspozitsiya, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, yechimi borligi bilan ahamiyatli. Yosh mulla aslida Qori Ishkambaning qanday odamligini bilmay, do‘stining maslahatiga ko‘ra, uni uchratishi va kuzatuvlari asosida eshitgan, ko‘rgan-kechirganlari, bilan “tugun” boshlanib, rejissor ilk kadrdanoq teletomoshabinni o‘tgan zamon muhitiga tushirishga harakat qilgan. Bu jihatni filmning ilk kadri Sharq bozorining panorama qilib ko‘rsatilishi hamda hikoyachining ma’lumot berish sahnasidan anglash mumkin. Filmdagi qahramonlarning muhitdan ajralmaganligi bu, albatta, filmni boyishiga xizmat qilgan. Kompozitsion jihatdan ham mukammal ishlangani, yirik planlardan kam, biroq o‘rinli foydalanilgani, ortiqcha so‘zdan tiyilish, obrazlilik orqali qahramon tug‘yonlarini tomoshabinga yanada aniq va ravshan yetkazilganini ham alohida ta’kidlash joiz. Britaniya va amerikalik kinorejissor, ssenarist Alfred Xichkok “Tomoshabinga yovuz qahramon yoqdimi, demak, bu - filmning yutug‘i”, deganda qanchalik haq bo‘lganini Ishkamba qahramoni orqali anglash mumkin.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi asosida yurtimiz kinoijodkorlari tomonidan film yaratilmagan. Har bir davrda ahamiyatli deya e’tirof etish mumkin bo‘lgan asarni o‘qib, qissa asosida film uchun loyiha yaratish lozim

fikrimizcha. Bunda asar uchun asos qilib olinadigan eskiz va maketlar ham xohishga qarab erkin bajarilishi mumkin. Haqiqiy san'at asarini tomoshabin qayta-qayta ko'rgisi kelaveradi. Buning uchun film har tomonlama yetuk bo'lishi lozim. Ma'lumki, film muvofaqiyatli chiqishida sahnalashtiruvchi rejissor, sahnalashtiruvchi operator va sahnalashtiruvchi rassom ishi muhim sanaladi. Sahnalashtiruvchi rassom asar (ssenary) uchun yaratgan qoramalarda voqealarning asosiy o'rni va umumiy rejalari tuzib oladi. Detallarga mufassal ishlov berish esa eksplikatsiya va raskadrovka zimmasiga yuklanadi. Qoramalarning o'ziyoq barcha qismlarni iloji boricha aniq tasavvur etish imkonini beradi. Rassom uchun murakkab kompozitsion manzaralar yaratish, oldingi va orqa planlarga to'liq ishlov berish qoramalarni yordamchi detallar bilan to'ldirish zaruriyatini tug'diradi.

Loyihani tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha talablar ham – g'oya, shakl, makon, sahna yechimi, davr, vaqt, muhit, voqelik kabi masalalar qissadagi mavjud ashyo va materiallarni, satirik qahramonlar qiyofasini ifodalay olishi lozim. Shuningdek, o'rganilayotgan g'oya asosidagi kompozitsiya uning yechimini yangi ifoda shakllari bilan uyg'unlashtirish orqali unga o'zgacha faktura yaratish ham mumkin.

Asarni o'qir ekanmiz, undagi qahramonlar adib tomonidan satirik qiyofada tasvirlanganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa bosh qahramon Qori Ishkamba o'rta bo'yli, qorni katta, semiz, bo'yni kalta va yo'g'on, boshi ham katta va sergo'sht bir odam, bo'ynining yo'g'onligi va yuzining sergo'shtligidan gavdasi suv to'ldirilgan meshga qiyoslanganligi bois uni xumchaga o'xshatib tasvirlash mumkin. Ishkambaning tashqi ko'rinishidan tortib, so'zlari, yurishi, taomlanishigacha, hatto liboslari hamda yashash joyi uning nechog'li xasis, pastkash, ziqna ekanligini ifodalab bergan. Yuvuqsiz, katta sallasi, liboslari qimmat bo'lmagan, ammo oddiy ham emas davr muhitiga mos. Semizligi sababli g'ayritabiiy yurish-turishi, ochofatlarcha ozqatlanishini Qori Ishkambani kulguli tasvirlash imkonini beradi.

Amaldorlar Noib To'ra, Arbob Ro'zi, Arbob Hamid obrazlarini ham birmuncha semiz ammo qoridan farqli o'laroq hashamdor liboslarda tasvirlash mumkin. Ularning oddiy xalq hayoti, dardu tashvishi qiziqtirmagan sovuq va kibrli yuzi Ishkambaning yaltiroq yuzidan farqli albatta.

Hamrohraq obrazida o'sha davrga mansub bo'lgan sodda, mehnatkash minglab insonlar hayoti mujassamlashganini ozg'in ammo dalada, mehnatda toblangan dehqonni, oddiy matolardagi liboslarda tasvirlash mumkin. Ularning umri mehnat bilan o'tib, qaddi bukilib qolgan. Hayotida bir yorug'lik ko'rmagan kishilar o'sha davrda ko'plab bo'lgani barchaga ayon.

Asarda yana shunday qahramon borki uni o'ziga xos tasvirlash mumkin. Uzun bo'yli, oriq, chuvak yuzli, bug'doy tusli Rahimi Qand obrazi orqali ayollarga xos jihatlar bilan tomoshabiniga kambag'al, bechora kishi qiyofasini ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, film uchun dekoratsiyalar tayyorlashda kadrlar bo'yicha turli inshootlar, bozor-u, rastalar, yo'llar va xonadon, hujralarni XIX asrdagi Buxoro xonligi tarixini o'rganish orqali ifodalash mumkin. Bunda eng katta va eng mayda detallarni inobatga olish muhim. Dekoratsiyalarga aniq masshtablardagi maketlar ham tayyorlanadi. Kino dekoratsiyalarga maket ishlashda maketimizning haqiqiy bo'lishini ta'minlash uchun turli tabiiy ashyolar, ya'ni mayda toshlar, qumlar, daraxtlarning mayda shoxchalaridan (maketda daraxt o'rnida) foydalanishimiz mumkin.

Kino san'atida filmni suratga olish jarayonida shunday kadrlar bo'ladiki, ular o'tmishdagi me'moriy inshootlar ko'rinishi yoki yaqin kelajakda qurilishi lozim binolar bo'lishi mumkin. Shunday paytda ushbu kadrlar uchun maketlar tayyorlanadi va film ana shu tayyorlangan maketlar yordamida suratga olinadi. Bunday maketlar aniq chizmatasvir va o'lchamlar asosida bajariladi, maketlarni ishlashda har bir detalning aniq tasviri, aniq o'lchami, fakturasi va uning nimadan ishlangani hisobga olinadi.

Fikrimizni yakunida shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda milliy kinematografiyani xalqaro maqomga ko'tarishga yo'naltirilgan ijodiy loyihalar amalga oshirilayotgani quvonarli hol. Shu nuqtayi nazardan Sadridin Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" qissasi asosida loyiha yaratish, badiiy obraz qiyofasi aks etgan eskizlar, liboslar, dekoratsiya va maketlar tayyorlab, asarni o'ziga xos uslub, milliy an'analar hamda tarbiyaviy g'oyalar asosida ekranga olib chiqish mumkin va bu milliy kino san'atining yana bir muvafaqqiyatli asari bo'lishiga shubha yo'q.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sadridin Ayniy. Sudxo'rning o'limi: qissa. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2016. –240-b.
2. Воҳидов Раҳим. Устод Садриддин Айний сабоқлари: адабий, ахлоқий – маънавий ўйлар–Т.: "Фан", 2004. – 319 б.
3. Н.Р.Аминов Filmning tasviriy yechimi –Т.:2010, 16-23-b.
4. Ш.Абдумаликов. Театр сахна безаги –Т.:2005, – 47 б.